



## DAVLAT ULUSHI BO'LGAN KORXONALARDAN BYUDJET MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

**Mamadiyorov Farrux Shuxratovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

2-kurs magistri

**Djurayev Davlat Djonibekovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

2-kurs magistri

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada davlat ulushi bo'lgan korxonalardan byudjet mablag'lardan samarali foydalanish mohiyati, ahamiyati va samarali moliyaviy nazoratni amalga oshirish orqali byudjet mablag'laridan tejamkorlik asosida foydalanish masalalari o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy nazorat, nazorat organlari, byudjet mablag'larini iqtisod qilish, maqsadsiz xarajatlarni oldini olish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida moliyaivy nazoratning maqsad va vazifalari, turlari va shakllari tubdan o'zgardi. Endi u faqatgina jazolash maqsadida emas, balki davlatning o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'larning to'liq to'planishi va byudjet mablag'lardan maqsadga muvofiq samarali xarajat qilinishini nazorat qilish maqsadida maslahat va ko'rsatmalar berish kabi vazifalarni bajarmoqda. Bugungi kunda moliyaviy nazorat tizimi o'z tarkibida nazorat qiluvchilar va nazorat qilinuvchilar bilan birga nazoratning turlari, shakllari va usullarini ham jamlaydi. Moliyaviy nazoratning muvaffaqiyatli va samarali o'tkazilishi uning tashkil etilish darajasiga va nazoratning turlari, shakllari va uni o'tkazishning metodlariga bog'liq. Bugungi kunda byudjet jarayonining barcha bosqichlarida byudjet intizomiga rioya qilinishi ustidan doimiy va samarali nazoratni ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni moliyaviy ta'minlashda byudjet xarajatlarining samaradorligini oshirish, ularning aniq maqsadli va manzilli bo'l shiga erishish eng muhim vazifalardan biri sanaladi.

Bu maqsadga erishish uchun byudjet intizomiga rioya etilishini yanada kuchaytirish, byudjet mablag'larining belgilangan maqsadlarda sarflanishi ustidan qattiq nazoratni ta'minlash juda muhimdir. Byudjet mablag'lardan foydalanish ustidan samarali davlat nazoratini amalga oshirishda moliyaviy nazorat organlar tizimi faoliyatini ham takomillashtirib borish muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda samarali moliyaviy nazorat tizimi yo'lga qo'yilganligi, byudjet mablag'lardan maqsadli, tejamli foydalanishni ta'minlash maqsadida davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududi nazorat-taftish boshqarmalari tashkil etilganligiga qaramasdan, moliya organlari va byudjet muassasalari faoliyatida ba'zan byudjet mablag'larini noto'g'ri sarflash, noqonuniy xarajatlarni amalga oshirish, hamda byudjet mablag'larini o'zlashtirish holatlari barham topmayapti. Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarga O'zbekiston Respublikasining respublika budgetidan (bundan buyon matnda respublika budgeti deb yuritiladi) ushbu Qonunga muvofiq ajratiladigan budjet mablag'lardan faqat 2023 moliya yili davomida foydalniladi va ular kelgusi moliya yiliga o'tkazilmaydi.



Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar o'zining joriy xarajatlarini, shu jumladan davlat rivojlantirish dasturlarini (bundan buyon matnda rivojlantirish dasturlari deb yuritiladi) amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'larni bir rivojlantirish dasturidan boshqa rivojlantirish dasturiga qayta taqsimlashga haqli.

Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (bundan buyon matnda Vazirlar Mahkamasi deb yuritiladi) qaroriga asosan respublika budgetidan ajratiladigan budjet mablag'larining 10 foizgacha bo'lgan cheklangan miqdorlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlaridan moliyalashtiriladigan o'z tasarrufidagi tashkilotlarga yo'naltirishga haqli.

Vazirliklar va idoralarning ichki audit xizmati tegishli rivojlantirish dasturlarining samaradorligi natijalarini tahlil qiladi hamda tahlil natijalari to'g'risidagi hisobotlarni hisobot choragidan keyingi oyning 20-sanasiga qadar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi.

Ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik milliy davlat dasturlarini, shuningdek ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishga doir loyihalarni moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarga chet el manbalaridan (chet davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan, xalqaro moliya va iqtisodiy institatlardan, chet el hukumatlarining moliya tashkilotlaridan) ajratiladigan grant mablag'larining (bundan miqdorlari va tarmoqlarini O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan mustaqil ravishda aniqlash shartlari (imkoniyatlari) bilan ajratiladigan grant mablag'lari mustasno) belgilangan miqdorlari ushbu Qonunga o'zgartish kiritilmasdan ko'paytiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarning respublika budgetidan ajratiladigan mablag'lardan foydalanish to'g'risida, shuningdek rivojlantirish dasturi maqsadli indikatorlarining bajarilish holati to'g'risidagi hisobotlarni eshitishni amalga oshiradi.

2023-yil uchun respublika budgetining daromadlari prognози 4-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2023-yil uchun birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarga respublika budgetidan ajratiladigan budjet mablag'larining cheklangan miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarining, sud va prokuratura organlarining budgetdan tashqari jamg'armalariga soliqlar, davlat bojlari, yig'imlar va soliq bo'limgan to'lovlari, ma'muriy jarimalar hamda moliyaviy sanksiyalar hisobidan kelib tushadigan mablag'larning bir qismi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan respublika budgetiga o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-sod Farmoniga muvofiq, shuningdek, vazirlik va idoralar faoliyatini samarali tashkil qilishga yo'naltirilgan birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni belgilash maqsadida:

1. Respublika ijro etuvchi hokimiyyat organlari – vazirliklar, qo'mitalar, agentliklar va inspeksiyalar (keyingi o'rinnarda – vazirlik va idoralar) hamda ular hududiy va tuman (shahar) bo'linmalarining Davlat byudjeti hamda byudjetdan tashqari jamg'armalari



mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan jami boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan **qo‘s Shimcha** boshqaruv shtat birliklarini kiritish **qat’iyan taqiqlansin**. Fikrimizcha, yuqoridagi holatlarni oldini olish va ularga barham berishda, davlat byudjeti mablag‘larining sarflanishini nazorat qilishni takomillashtirishning asosiy yo’nalishlari qilib quyidagilarni belgilab olish lozim: 1. Byudjet mablag‘larining sarflanishining nazorat qilishning ilmiy asoslangan uslubiyatini yanada takomillashtirish;

2. Byudjet tizimi va jarayonini tartibga soladigan me’yoriy bazalarini unifikatsiyalash, ixchamlashtirish va muqobillashtirish;

3. Byudjet tashkilotlari tomonidan moliyaviy shtat intizomiga riosa qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish;

4. Davlat byudjeti mablag‘larini sarflanishining samarali monitoringi amalga oshirishda texnik vositalar va dasturiy ta’mintlardan keng foydalanish;

5. Aholining kam ta’minlangan tabaqalariga ijtimoiy nafaqalarni o’z vaqtida to’lash ustidan nazoratni yaxshilash;

6. Davlat investitsiya dasturiga ajratilgan byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish;

7. Byudjet munosabatlarida ishtirok etuvchi tashkilotlar o’rtasida nazoratni tashkil etishda o’zaro ma’lumotlar alshashish mexanizmini takomillashtirish;

8. Davlat byudjeti mablag‘laridan foydalanishda jamoatchilik nazorati va ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalanish;

9. Byudjet mablag‘larini tejashda iqtisodiy rag’batlantirishlarni yangi usullarini tadbiq etish;

10. Byudjet nazorati bilan shug’ullanadigan xodimlarning kasbiy malakalari, faoliyatlaridagi ob’ektivlik va ma’suliyatini oshirish.

Davlat byudjeti mablag‘larining sarflanishini nazorat qilishni takomillashtirishga qaratilgan yuqorida sanab o’tilgan yo’nalishlarni amalga oshirish uchun fikrimizcha, quyidagi chora-tadbirlarni amaliyatga tadbiq qilinishi maqsadga muvofiqdir:

I. Byudjet mablag‘larining sarflanishining nazorat qilishning ilmiy asoslangan uslubiyatini yanada takomillashtirish borasida fikrimizcha, mablag‘larning sarflanishi ustidan nazorat qilishning ayrim uslubiyatlarini byudjet tizimi va jarayonlaridagi islohotlar talablaridan kelib chiqib yanada takomillashtirish, bunda xorijiy tajribalarni o’rganib, ulardagagi ilg’or tajribalarni milliy moliya tizimimiz xususiyatlaridan kelib chiqib, amaliyatga tadbiq etish lozimdir.

II. Byudjet tizimi va jarayonida moliyaviy munosabatlarni tartibga solish borasida foydalaniladigan barcha hujjatlarni yagona me’yoriy hujjat qilib jamlash va muqobillashtirish lozim. Garchi 2014 yildan Byudjet kodeksi qabul qilinib, bir necha me’yoriy hujjatlar unifikatsiyalangan bo’lsada, ba’zan byudjet mablag‘laridan foydalanish yuzasidan nazoratlar maxsus yo’riqnomasi va ko’rsatma xatlar asosida amalga oshirilmoqda. Bu maxsus yo’riqnomasi va ko’rsatma xatlardan odatda faqat nazorat qiluvchi sub’ektlarninggina xabardor bo’lishi va foydalani olishi, ayrim hollarda nazorat qilinadigan ob’ektning mas’ul xodimlarini bu huquqiy hujjatlarni bilish va foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.



III. Byudjet tashkilotlari tomonidan moliyaviy shtat intizomi buzilishi hollari ko'p yillik tizimli muammolardan biri sanaladi. Bu holat asosan xodimlarning bilim va ko'nikmalari etishmasligi, etiborsizligi yoki shaxsiy manfaatlari yo'lida o'zaro til biriktirishlari natijasida vujudga kelishi mumkin. Mazkur holatga barham berish yuzasidan xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, shuningdek, muassasa rahbar xodimlariga nisbatan intizomiy choralar hamda jarimalar qo'llash kabi tasirchan faoliyatni amalga oshirish lozim.

IV. Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishda inson omilining kamayishi va bu jarayonda axborot texnologiyalaridan keng foydalanishi samarali monitoringi amalga oshirishga hamda mablag'lar sarflanishining eng ishonchli moliyaviy nazoratini tashkil etishga erishish imkonini beradi. Albatta, mazkur faoliyatni amalga oshirishda mukammal ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotlarsiz ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.H.Haydarov, B.F.Azimov, F.Ehalimov. Increasing The Efficiency Of Using Sports Facilities Of Educational Institutions Of Sports. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences EpSBS. 2020

2. Хайхадаева О.Д., Хайдаров Н.Х. ПОЛИТЭКОНОМИЯ ПЕРЕХОДА К ЧИСТОЙ ЭНЕРГИИ В США. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 4-5, август-октябрь, 2018 йил

3. N. Xaydarov. Economic growth, demographics and income distribution in central asia in condition of gradual economic transition. International ScientificPractical Conference SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN CONDITIONS OF GLOBALIZATION. XXV-a aniversari a ASEM Moldova – 2016

4. N. Xaydarov. Land tenure reforms and cross-border water rights in uzbekistan: mixed effect and future consequences. Annul World bank Conference on Land and poverty. Washington DC. March 14-18 2016 year.

5. N.H. Haydarov. Improvement of financial and tax relations in the investment activity of enterprises in the conditions of economic liberalisation. Doctor of Science. dissertation abstracts for obtaining a scientific degree ..., 2003 6. N.H. Haydarov. Issues of improving financial and tax relations in the investment activities of enterprises in the context of economic liberalization. Dissertation for the degree of Doctor of Economics. Tashkent-2003

7. A.V.Vaxabov, S.A.Tashmatov, N.X.Xaydarov. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma/-Toshkent 2013

8. У.Ўроқов. Ўзбекистон Республикасининг бюджет кодекси: моҳияти, аҳамияти ва афзаллликлари. “Молия” журнали 2014 йил, 1-сон. 17. У.Ўроқов, И.Иргашев, О.Файбуллаев. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. Baktria press, 2022